

## MILLIY IDENTIFIKATSIYA JARAYONI QONUNIYATLARI TAHLILINING METODOLOGIK ASOSLARI

**O‘TAYEV G‘.G‘. TTA**

Ijtimoiy fanlar kafedrası

katta o‘qituvchisi

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada milliy identiklikning metodologiyasi va ilmiy asoslari to‘g‘risida so‘z boradi.*

### **АННОТАЦИЯ**

*В данной статье рассматриваются методология и научные основы национальной идентичности.*

Uzoq vaqt davomida faqat marksistik metodologiyaning dogmatik interpretatsiyasiga asoslangan mamlakatda olib borilgan tadqiqotlar hozircha kontseptual jihatdan millat, millatchilik, millatlararo munosabatlar va xokozolarga g‘arbiy yondoshuvlar bilan raqobatlasha olmaydi. Bu masalada Rossiyalik va Ukrainalik mualliflarning zamonaviy nashrlari yoki rivojlantiradi yoki anglab turib Yu. Bromleyning primordialistik va etnomarkazlashgan yondoshuvi, milliylikni etnik tomonga pasaytirgan holda horijiy tadqiqotchilarning ishlab chiqishlari muammo o‘rganilayotgan davlatlarning ijtimoiy vaziyati va tarixi bilan moslashtiradi. Ammo bunday moslashtiruvga gohida o‘ta qiziq va qimmatlidir, lekin baribir E.Gellner, B.Anderson, M.Xrox, E.Smit, E.Xobsbaum, K.Verderi, M.Veber, K.Xyunber kabi tadqiqotchilarning ishlariga nisbatan ikkinchi darajalidir. Aynan shu ishlab chiqishlar etnik milliy muammolarning nazariy yechimining zamonaviy darajasini belgilaydi. Bu bilan shuni ta’kidlash joizki, bunday masalalarda optimizm uchun asos bordir

misol tariqasida oxirgi yillarda aynan milliy va ijtimoiy masalalarga bag'ishlab Rossiyada, xorijda xususan O'zbekistonda ham bir qancha qator ilmiy bahslar bo'lib o'tdi, ularning natijalariga faqat vatan etnologiyasining haqiqiy ilgari surilishi sifatida emas, balki millat, millatchilik, milliy o'xshashlikning umumiy nazariy muammolarini falsafiy idrok etishning darajasiga xissasi sifatida ham qarash mumkin. Hozircha bunday oldinga qaratilgan tadqiqotlarda o'z ifodasini topayotgani yo'q ammo, yaqin kelajakda buni kutish mumkin. Shuningdek milliy identifikatsiya masalasida informatsion resurs bo'lib Rossiyalik tadqiqotchilarning ishlari bo'ldi. Ularda asosan milliy jamiyatchilikning shakllanishi va ishlashining alohida mezonlari tilning roli, etnik psixologiya, milliy stereotiplar, elat va millatning ijtimoiy muammolari, milliy afsonalar, va hokozolar haqida so'z boradi.

Xususan milliy identifikatsiya jarayonining metodologik asoslarini o'rganishda dastlab tadqiqotchilarning ushbu masalaga bo'lgan yondoshuvlarini o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ularga bugungi kunda o'rganilgan va o'rganilayotgan bir nechta yondoshuvlarni kiritish mumkin ammo, tadqiqotchilar asosiylariga quyidagilarni kiritadilar: primordialistik, instrumentalistik, konstruktivistik. Shuningdek milliy identifikatsiya masalasiga bo'lgan yondoshuvlarni tadqiq etish o'z navbatida dastlab "millat" tushunchasiga bo'lgan ilmiy qarashlar va yondoshuvlarni o'rganishni taqozo etadi. Quyida biz yuqorida aytib o'tilgan uchta yondoshuvga to'xtalmoqchimiz.

Primordializm (ingliz tilidan rimordial - "boshlang'ich", "dastlabki", "azaliy" degan so'zdan olingan) yo'nalishning mashhur namoyondalari qatoriga K.Girts, R.Gambino, U.Konnfro, Yu.V.Bromley, E.Stuard, P.Van den Berg kabi mashhur tadqiqotchilarni kiritish mumkin. Bu yo'nalish tarafdorlari millatni tarixdan belgilangan kishilarni umumiyliigi nuqtai nazaridan ya'ni, aniq mavjud fenomen sifatida yondoshadilar. Bu nazariya doirasida bir guruh olimlar madaniy g'oya yoki iqtisodiy determinizm tarafdori bo'lib, boshqa millatlarni bioenergetik tabiatini qayd etadi. Masalan Sovetlar davrida yaratilgan etnos nazariyasining asosiy manbai va tarkibiy qismiga 1913 yilda I.Stalin tomonidan millatga berilgan ta'rif asos bo'lgan.

Bunga ko'ra "millat tushunchasi kishilarning tarixiy tarkib topgan guruhi bo'lib, madaniyatlar umumiyligi asosida namoyon bo'ladigan umumiy til, hudud, iqtisodiy hayot va ruhiy jamlanma asosida yuzaga keladi. Albatta bu yerda millat tushunchasiga berilgan ta'rif ma'lum ma'noda sovet mafkurasi doirasida edi. Chunki millat tushunchasiga sovetlar davrida berilgan ta'rif ma'lum darajada umummanfaatlarni ham hisobga olgan. Keyinchalik I.Stalin va rus tadqiqotchisi S.M.Shirokogorov tomonidan millatga berilgan ta'rif P.Kushner, S.Tokarev, N.Cheboksarov, V.Kozlov tadqiqotlarida ma'lum ma'noda takomillashtirilgan. Shuni alohida ta'kidlash joizki, yuqorida nomlari zikr etilgan olimlarni ma'lum darajada sobiq sovetlar davridagi "etnos nazariyasi"ning hammualliflari deb ham atash mumkin. Lekin bu nazariya taraqqiyotida g'arb tadqiqotchisi Yu.Bromleyning xizmatlari ahamiyatga molikdir. U tomonidan o'tgan asrning 80-yillarida millat nazariyasi yanada takomillashtirilgan va materialistik fundamentdagi yaxlit bir tizimli kontseptsiya darajasidagi nazariya ko'rinishiga ega bo'lgan. O'z navbatida shuni ta'kidlash kerakki, millat nazariyasi doirasida sovet davri olimlari ayrim masalalarda umumiy bir fikrga kelgan bo'lsalar ham qator muammolar yechilmay qolgan. Markaz olimlari millat nazariyasiga ko'pincha umumiy fikr-mulohozalar bildirib, Rossiya imperiyasi tarkibidagi millatlar, va elatlarga xos xususiyatlarga yetarlicha ahamiyat bermaganlar. Primordialistlar millatni tarixdan belgilangan kishilarni umumiyligi nuqtai nazaridan yondoshadalar. Ya'ni, bu nazariyaga ko'ra millat, qadimdan mavjud bo'lib, insonlarning umumiy hudud, madaniyat, til va hokozolar asosida birlashuvidir. Jumladan millat va milliylik masalalariga primordialistlar nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak, etniklik bu bir organik tuzilma bo'lib, uning g'oyaviylashtirilishi va u yoki bu afzalliklar, naflar olishga qaratilgan bo'lishi mutloq zarur emasdir. Primordialistlar fikricha, etniklikka ob'ektiv berilish, insoniyatning dastlabki xarakteristikasi deb qaraladi. Boshlanishini antik davrning siyosiy falsafasida topish mumkin bo'lgan bu yondoshuv, E.Dyurkegeymning guruhliy birdamlik haqidagi ishidan so'ng "ikkinchi marotaba tug'ilishni" boshdan kechiradi.

Agar biz millat nazariyasining primordialistik yondoshuvini tahlil qiladigan bo'lsak, bu yerda ikki xil fikr paydo bo'ladi: birinchisi hozirgi paytda dunyoda mavjud bo'lgan millatlarning shakllanish tarixini o'rganib chiqadigan bo'lsak, ularda kechgan dastlabki etnogenetik jarayonlar ya'ni, etnoslar va etniklik keyinchalik esa elat hamda xalq bo'lib shakllanganligini kuzatamiz. Bu yerda o'z-o'zidan millat qadimdan mavjud bo'lmagan, u asta-sekin bosqichma-bosqich shakllangan degan fikr paydo bo'ladi. Chunki insonlar millat bo'lib, shakllanish uchun bir nechta shakllanish bosqichlari va ijtimoiy jarayonlarni bosib o'tadi. Bu yerda ularga albatta til, madaniyat, din, hudud kabi komponentlar bilan birga milliy urf-odatlar, milliy bayramlar, milliy diniy marosimlar bilan birgalikda milliy birlik va birdamlik kabi tuyg'ular ham bo'lishi kerak. Qolaversa biz tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, hozirda yer yuzida mavjud bo'lgan millatlarni birdaniga millat sifatida shakllanganligini kuzatmaymiz. Garchi ayrim millatlar bosqinchilik urushlarini kamroq boshdan kechirgan bo'lsalarda, ularda nisbatan til to'laligicha saqlanib qolgan ammo, bunday millatlar ham din, axloq, huquq, madaniyat kabi ijtimoiy jarayonlarda ma'lum bir to'siqlar va qiyinchiliklar to'la davrlarni boshidan kechirganlar.

Chunki yer yuzida bo'lib o'tgan turli xil maqsaddagi bosqinchilik urushlari bir xalqning nafaqat turmush tarziga balki, madaniyati, tili, urf odatlariga, milliy qadriyatlariga hamda milliy his tuyg'ulariga bevosita va bilvosita ta'sir o'tkazib qolmasdan, o'ziga xos bo'lgan ijtimoiy va siyosiy dunyoqarashni ham shakllantirgan. Natijada istilo qilingan davlat xalqlarida asrlardan beri saqlanib kelayotgan milliy qadriyatlar, til, madaniyat, urf-odatlariga istilochi xalqlarning milliy qadriyatlari, madaniyati, tili, urf-odatlari o'z ta'sirini o'tkazgan ya'ni uyg'unlashgan. Vaqt o'tishi bilan bu uyg'unlashuv natijasida istilo qilingan xalqlarning ayrim qadriyatlari jumladan tili, (til ham ma'lum ma'noda o'zgargan) va urf-odatlarigina saqlanib qolgan. **Xulosa.** Aynan milliy til va qadriyatlarning uyg'unlashuvi boshqa komponentlarga nisbatan qiyin kechgan. Bu bilan millatning shakllanishi integratsiyalashuv jarayonlari asosida yuzaga keladi degan nazariya paydo bo'ladi.

Aynan bunday fikrni primordialistik yondoshuvning izdoshlari etnoslarga ham ijtimoiy, ham qondosh (biologik) hamjamiyatlar sifatida qarashlarida ham ko‘rish mumkin. Shu nuqtai nazardan kelib chiqqan holda primordialistlarni ham ikkita guruxga ajratish mumkin: ijtimoiy biologik (masalan, L.N.Gumilev) va evolyutsion tarixiy (Yu.Bromley va boshqalar.)

### ADABIYOTLAR

1. Madaeva Sh.O Milliy mentalitet va demokratik tafakkur.Falsafa va huquq instituti nashriyoti. Toshkent 2007. 57-58 betlar.
2. Nitsche F. Tak govoril Zaratustra. – M., 1990. S. 142.
3. A.Ziyo. O‘zbek davlatchiligi tarixi Toshkent. Sharq, 2000 30 bet.
4. O.Qo‘shjonov Xorazmdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar va harakatlar. Toshkent, “Adu matbuot konsalt” 2007. 157bet.
5. K.Shoniyozov O‘zbek xalqining shakllanish jarayoni.Toshkent “Universitet” 2007.59 b.
6. Asqarov A. O‘zbek xalqining etnik shakllanishi.